

ХАЛҚАРО ТА‘МИНОТ ЗАНЖИРИ ОПЕРАТСИЯЛАРИДА БОЈХОНА БОЈЛАРИ ВА СОЛИQLARNI OPTIMALLASHTIRISH MALASALARI

О‘tkirov Behzod Muhammadi o‘g‘li

Bojxona instituti magistratura tinglovchisi

behzodbekutkirov@gmail.com

Sarmanov Orifjon Adiljonovich

Bojxona intitutining “Bojxona tartibga

solinishi va bojxona to‘lovlari”

kafedراسи katta o‘qituvchisi, i.f.f.d.

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada bojxona organlari tomonidan bojlarini optimallashtirishda qo‘llaniladigan usul va vositalari, Dunyo mamlakatlari tajribalariga asoslangan holda tuzilgan bojxona to‘lovlarini optimallashtirish sxemasi, shuningdek import tariflari va import cheklovlarining iqtisodiyotga zararli ta‘sirlari tahlil qilingan.

***Kalit so‘zlar:** Erkin savdo bitimi, tarif imtiyozi, bojxona bojlarini qaytarib olish, monopoliya, sog‘lom raqobat.*

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье исследуются методы и инструменты, используемые таможенными органами для оптимизации таможенных пошлин, представлена схема оптимизации таможенных платежей, основанная на опыте мировых стран, а также проводится детальный анализ негативных последствий импортных тарифов и импортных ограничений для экономики.

Ключевые слова: соглашение о свободной торговле, тарифная преференция, возврат таможенных пошлин, монополия, добросовестная конкуренция.

ANNOTATION

This scientific article delves into the methodologies and instruments utilized by customs authorities for the optimization of customs duties, presents a customs payment optimization scheme derived from the experiences of various countries worldwide, and provides an in-depth analysis of the adverse economic effects of import tariffs and import restrictions.

Key terms: Free Trade Agreement, tariff preference, customs duty reimbursement, monopoly, healthy competition.

KIRISH.

Xalqaro miqyosda yuk tashishda, butun dunyo bo‘ylab mahsulotlarni ko‘chirishda barcha bog‘liq xarajatlar kiritilishini ta‘minlash uchun qo‘ngan xarajatlarni hisoblash juda muhimdir. Aksariyat kompaniyalar uchun yuk narxi har qanday transchegaraviy operatsiyalarda eng katta xarajat hisoblanadi. Biroq, ko‘plab transmilliy korporatsiyalar o‘z tovarlari chegaralarni kesib o‘tayotganda har yili millionlab dollar boj va soliq to‘layotgani ham haqiqatdir. Bugungi o‘zaro bog‘liq dunyoda yangi bozorlar kashf etilmoqda va kompaniyalar xalqaro ta‘minot zanjiri izlarini turli qit‘alarga muntazam ravishda kengaytirmoqdalar, shuning uchun transchegaraviy operatsiyalarni amalga oshirishda bojlar va soliqlarni optimallashtirish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish juda muhimdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Ko‘p holatlarda tadbirkorlik subyektlari bojxona to‘lovlarini to‘lamaslikka harakat qilishadi. Ammo davlatda bojxona to‘lovlaridan qonun doirasida ozod qilishni nazarda tutuvchi huquqiy baza mavjud bo‘lib, ular tadbirkorlarga kengroq imkoniyatlar yaratish, ichki bozorni mahsulot tanqisligining oldini olish, faoliyatini endi boshlayotgan korxonalariga yengilliklar berish kabi maqsadlarni o‘z ichiga olishi

mumkin. Quyida biz bojxona to'lovlarini samarali ravishda kamaytirish uchun turli xil boj va soliq imtiyozlari hamda imtiyozli dasturlarni keltirib o'tmoqchimiz:

1. Erkin savdo bitimlari orqali bojlarni optimalashtirish

Global miqyosda erkin savdo shartnomalarining ko'payishi bilan so'nggi bir necha yil ichida ko'plab yangi biznes imkoniyatlari rivojlandi. Tuzilgan savdo bitimlarining so'nggi misollari: Yevropa Ittifoqi-Vetnam Erkin savdo shartnomasi, Trans-tinch okeani hamkorligi uchun keng qamrovli va progressiv bitim, Mintaqaviy keng qamrovli iqtisodiy hamkorlik Kelishuvi, Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlari assotsiatsiyasi tovar savdosi shartnomasi hamda Afrika kontinental Erkin savdo hududi to'g'risidagi Kelishuvlar.

2. Mahalliy rag'batlantirish sxemalari orqali boj va soliqlardan imtiyozlar berish

Mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish va bandlik darajasini oshirish uchun rivojlanayotgan bozorlardagi ko'plab hukumatlar xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun innovatsion iqtisodiy siyosatni joriy qildilar. Rag'batlantirish sxemalarining ko'pchiligi fiskal va nofiskal imtiyozlarni, jumladan korporativ soliq ta'tillarini, boj va QQS imtiyozlarini o'z ichiga oladi. Eng keng tarqalgan sxemalarga misol sifatida bojxona ombori, Erkin savdo zonasi, Eksportni qayta ishlash zonalari va maxsus iqtisodiy zonalar(MIZ) misol bo'ladi. Xalqaro ta'minot zanjirida kompaniyalar ushbu savdoni rag'batlantiruvchi sxemalarni jiddiy o'rganishlari va barcha mumkin bo'lgan boj va soliq imtiyozlaridan to'liq foydalanish uchun o'zlarining biznes yo'lini qayta ishlab chiqishlari talab etiladi.

3. Tarif imtiyozlarini berish

Ko'plab mamlakatlarda mahalliy hukumatlar ayrim tovarlar uchun import bojini olib tashlaydigan tarif imtiyozlari tizimini joriy qilgan. Bunday imtiyozlar ijtimoiy, gumanitar yoki sanoat yordami uchun ishlatiladigan tovarlarga berilishi mumkin. Tarif imtiyozlari tizimi mahalliy sanoat uchun juda muhim, chunki u o'xshashi Respublikada ishlab chiqarilmaydigan ba'zi import qilinadigan tovarlar uchun xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi.

4. *Bojxona bojlarini qaytarib olish imkoniyati*

Muayyan sharoitlarda, agar import qilinadigan tovarlar bojxona hududida qayta ishlash rejimidagi tovarlarni qayta ishlash yoki ishlab chiqarish uchun foydalanilsa, tadbirkorlar toʻlangan import bojlarini qaytarish uchun ariza berish imkoniyati yaratilishi lozim. Xuddi shunday, foydalanilmayotgan import qilinadigan tovarlar ham boshqa mamlakatlarga reeksport qilinganda bojxona toʻlovlari qaytarilishi mumkin. Tegishli qoidalarda nazarda tutilgan boshqa barcha bojxona tartib-qoidalarida boʻlgani kabi, tadbirkorlar tegishli sharoitlarda import bojini qaytarib olish huquqiga ega.

5. *Biznes xarajatlarini kamaytirishning qoʻshimcha imkoniyatlari*

Bojxona bojlarini qaytarib olish imkoniyatidan tashqari, mahalliy bojxona organlari tomonidan tadbirkorlarning biznes xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan boshqa tegishli chora-tadbirlar ham amalga oshirilmoqda. Bojxona bojlari va soliqlarni kechiktirib toʻlash imkoniyati import qilinayotganda boj va soliq toʻlovlarini kechiktirish orqali tadbirkorlarning pul oqimini yengillashtirishga xizmat qiladi.

Bunday imkoniyatlar turli shakl va koʻrinishlarda berilishi mumkin, baʼzi mamlakatlarda oyiga bir marta konsolidatsiyalangan toʻlov amalga oshiriladi, tadbirkorlar tovarlarini mahalliy bozorlarga olib kirganlaridan keyin bojlarni toʻlash imkoniyati beriladi.

Bunday qoidalar faqat maʼlum talablarni bajargan tadbirkorlik subyektlariga (masalan, VIOLarga) yoki boj va soliq toʻlovlarini toʻliq taʼminlagan tadbirkorlik subyektlariga beriladi. Bojlarni vaqtinchalik toʻxtatib turish sxemasining qoʻllanilishi mamlakat ichkarisida yuqori ehtiyojga ega tovarlar ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun, shuningdek, davlat hududida ishlab chiqarilmaydigan tovarlar uchun qoʻllaniladi. Ushbu sxema boj va soliq toʻlovlari tufayli korxonalar duch keladigan pul oqimi muammolarini yengillashtirish orqali maʼlum bir strategik muhim tarmoqlarning oʻsishini qoʻllab-quvvatlash uchun juda muhimdir.

Quyida bojxona toʻlovlarini optimallashtirish sxemasi keltirilgan:

Bojxona to'lovlarini optimallashtirish sxemasi

Minimaldan tortib yuqori darajali bojxona qoidalarigacha:



1-chizma. Bojxona to'lovlarini optimallashtirish sxemasi¹


Tovarlarni hech qanday imtiyoz yoki preferensiyalar qo'llanilmasdan olib kirilishiga nisbatan tovarlarni muayyan imtiyozlar bilan olib kirilish holatlari tadbirkorlar uchun qulay hisoblanadi. Tovarlar importida “qizil nuqta”ga (sxemadagi “bojxona bojlarini to'lash” nazarda tutilmoqda) yetib kelmasdan tovarlarni importini amalga oshirish muhim sanaladi. Mahsulotga ma'lum imtiyozlar berilgandan keyin, masalan stavkalar pasaytirilgandan so'ng, ushbu tovarning kirib kelish hajmi ortadi. Stavkalarining kamayishi hisobiga yo'qotilayotgan bojxona to'lovlari tovarlar hajmining ortishi hisobiga qoplanadi. 2019-yilda bojxona boj stavkalarini belgilash uchun tadbirkorlar o'rtasida so'rovnoma o'tkazilgan bo'lib, ushbu so'rovnomalar ekspertlar tomonidan tanqid ostiga olingan. Iqtisodchi olim, Yuliy Yusupovning yozishicha, bojxona to'lovlarini oshirish yoki kamaytirishni tadbirkorlardan so'rash noto'g'ri. Bojxona tariflarini tartibga solish masalalarini hal qilishdagi bunday yondashuv ijobiy natija bermaydi.

“Har qanday tadbirkor, agar u monopolist bo'lmasa, o'zining raqobatchilarini cheklashdan manfaatdor. Shu bois, bojxona to'lovlarini oshirish yoki kamaytirish

¹ Internet manbaalari asosida muallif ishlanmasi

haqida soʻralganda, xomashyo stavkalarini pasaytirish, tayyor mahsulotlarga stavkalarni oshirish kerak, deb javob berishadi”, — deb aytib oʻtgan ekspert. U, shuningdek, bojxona toʻlovlarini optimallashtirishda makroiqtisodiy oqibatlar hisobga olinmayotganligi, bojlarning oshishi eksportni oʻldirayotganligi, tovarlar kontrabandasiga olib kelishi mumkinligi va valyuta kursiga nisbatan "bosim"ning yuzaga keltirishi haqida fikrlar keltirib oʻtgan².

TOVARLARNING XALQARO AYLANMASI:




2-chizma. Tovarlar xalqaro aylanmasining sxemasi³

Olimning fikriga koʻra, Oʻzbekiston importga qaramlikning salmoqli qismidan qutulishga erishdi. Boj tariflarining oʻzgarishi esa yana importga qaramlikni keltirib chiqarishi mumkin. Faqat import bojxona toʻlovlarini oshirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish mumkin emas. Biznes juda koʻp omillarga bogʻliq. Ulardan aynan birini, masalan tarif stavkalar bilan tartibga solishning oʻzi bilan mahalliy ihsab chiqaruvchilarni himoya qilishda foydalana olmaysiz. Ilmiy jihatdan qaralganda hamma narsani umumiy koʻrib chiqish zarurligi eʼtirof etiladi.

² Pochemu povysheniye importnykh tamojennykh poshlin negativno otrazitsya na ekonomike. URL: <https://www.spot.uz/ru/2019/04/02/import/> (murojaat sanasi: 21.10.2024)

³ Internet manbaalari asosida muallif ishlanmasi



3-chizma. Tashqi savdo ko'rsatkichlarining tahliliy diagrammasi⁴

Proteksionizm, import tariflari va boshqa import cheklovlarining mamlakat iqtisodiyotiga zararli ta'sirlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Import tariflari tufayli mamlakatda tovarlar narxi sun'iy ravishda ko'tariladi, bu esa xalqning qashshoqlashishiga hamda tovar iste'molining kamayishiga sabab bo'ladi;
2. Tovarlarning ichki bozordagi narxlari ikki tomonlama ko'tariladi. Birinchidan ichki ishlab chiqaruvchilar o'zlari xohlaganlaridek narxlarni belgilashadi, ikkinchidan chetdan import qilinadigan tovarlarning narxlari import tariflari hisobiga importyorlar tomonidan ixtiyoriy-majburiy ravishda yuqori qilib belgilanadi.
3. Inflaytsiya tezlashadi, qayta moliyalashtirish stavkasi ko'tariladi va mamlakatning iqtisodiy o'sishi hamda aholining real daromadlari o'sishi "qurbon qilinadi";
4. Jahon bankining "Doing business" reytingida davlat oxirgi o'rinlarda qolib ketadi (*import operatsiyalarini amalga oshirishning murakkabligi bo'yicha O'zbekiston "Doing business" reytingida 150-o'rinni egallagan*)⁵.

⁴ <https://uztradeinfo.uz/?l=uz> sayti ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

⁵ Manbaa: https://archive.doingbusiness.org/en/data/exploreconomies/uzbekistan#DB_tab (murojaat sanasi: 04.01.2025)

5. Import tariflari hamda importdagi cheklovlar tufayli tovarlarni mamlakat hududiga noqonuniy olib kirish holatlari ko'payadi, bu esa qora bozorda valyutaga bo'lgan talabni oshiraadi
6. Import tariflari bu "oyna"dir. Davlat chet el mahsulotlariga import tariflarini kiritar ekan, chet davlatlarda ham ularning tovarlariga shunday tariflar qo'llanilishiga sabab bo'ladi. Va bu eksportga yana bir to'siq bo'ladi⁶.

Hozirda yurtimizda JSTga a'zolik jarayoni jadal olib borilmoqda. Xususan, 2023-yil 2-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi №181-son Qaroriga asosan, JST bilan ishlash bo'yicha idoralararo komissiyaning tarkibi, shuningdek JST bilan ishlash bo'yicha muzokaralar guruhi tasdiqlandi.

JSTga a'zolik O'zbekistonning xalqaro ta'minot zanjiriga qo'shilishi uchun zamin yaratishi shubhasiz. Bu ichki bozorni himoya qilishga qaratilgan choralarning yengillashuviga, shuningdek, ayrim monopolistik va oligapolistik korxonalarining raqobat bozoriga o'tishlariga sabab bo'ladi. Bundan tashqari tovarlar bozori kengayib sog'lom raqobat muhiti shakllanadi, takliflar oshishi natijasida mahsulotlarning ichki bozordagi narxlari sezilarli darajada pasayadi.

⁶ Почему повышение импортных таможенных пошлин негативно отразится на экономике. URL: <https://www.spot.uz/ru/2019/04/02/import/> (murojaat sanasi: 03.01.2025)

Xulosa.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, mamlakat bozor iqtisodiyotining Jahon savdo xo'jaligidan ajralib qolishi, davlatning "yopiq" iqtisodiy mamlakat sifatida rivojlanishga urinishi, ichki ishlab chiqaruvchilarni keragidan ortiq himoya qilish, davlatda monopolistik tarmoqlarning mavjudligi mamlakatning eksport salohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, davlatga valyuta oqimining kirib kelishiga to'sqinlik qiladi, shuningdek, inflyatsiya darajasining oshishiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Xalqaro ta'minot zanjirining faol a'zosiga aylanish arafasida turibdi. Ushbu a'zolik natijalari ma'lum sanoat korxonalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi barobarida, ko'plab yo'nalishlarning barqaror rivojlanishi, milliy mahsulotlarimizning jahon bozorlarida munosib o'rin egallashiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Почему повышение импортных таможенных пошлин негативно отразится на экономике/Маqola/ URL: <https://www.spot.uz/ru/2019/04/02/import/> (murojaat sanasi: 21.10.2024);
2. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: o'quv qo'lanma. / A.V. Vaxabov, Sh.X.Hajibakiyev, Sh.I.Rahmanov, X.A.Usmanova. -T.: «Vorish-nashriyot», 2014. –b.135;
3. Дерен В.И. Мировая экономика. Смоленск, 2016. С. 215;
4. <https://www.spot.uz/ru/2019/04/02/import/>;
5. <https://uztradeinfo.uz/> ;
6. <https://archive.doingbusiness.org/en> ;
7. <https://stat.uz/>.